

УДК: 330.43:338.43

**AGROSANOAT SOHASIGA YANGI BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH,
MAHALLIY MAHSULOTLARNING RAQOBATDOSHLIGINI OSHIRISH.****Farrux Do'stmirzayevich Jo'rayev***Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasи v.b. professori***Sultonov Sirojiddin Normurolovich***Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasи katta o'qituvchi*

Аннотация: Агросаноат соҳаси, iqtisodiyotning muhum tarmog'i bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va xizmatlar sohasini keng joriy qilish orqali xalq xo'jaligi uchun kata ahamiyatga ega. Bugungi kunda arosanoat sohasi rivojlantirishni tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjalarga ko'ra, qishloq xo'jaligiga iqtisoslashtirilgan yerlardan samarali va unumli foydalanish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida qoplash va bartaraf etish. Yetishtirilgan mahsulotlarni eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblangan vazifalarni Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari tomonidan tegishli xulosalarni berish vazifasi yuklatilgan. Yangi bozor mexanizmlarini joriy qilish, agrosanoatniing raqobatdoshligini oshiriish va mamlakat iqtisodiyotiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatishini ko'rishimiz mumkin.

Калит сўзлар: Кластер, яратувчаник, қишлоқ хўжалиги саноати, ҳудуд, рақобатдошилик, қишлоқ хўжадиги.

KIRISH

Agrosanoat majmuasini rivojlantirish axolining turmush darajasini oshrishning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanishga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e'tibor berilib kelinmoqda. Buning natijasi o'laroq, mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotini yuritish uchun zarur huquqiy baza yaratildi va ular muttasil takomillashtirilmoqda [1]. Olib borilgan siyosat natijasida agrar sohada nodavlat sektor tez rivojlantirildi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish asosan shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari shaklida tashkil etildi bozor talablari va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqib, ishlab chiqirishning tarkibi o'zgartirildi. Chorvachilik tarmog'i xususiyashtirildi. Mamlakatda yetishtirilgan hosilni qayta ishlash darajasi va kimga qancha sotish masalalari mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ijobjiy hal qilinmoqda. Chunonchi agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarni imkon darajasida bir-biriga mutanosib rivojlantirish, ularning iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtirish masalalari yanada kuchaymoqda. Bozor munosabatlarining rivojlantirilishi biz uchun nisbatan yangi hisoblangan marketing, menejment iqtisodiy havfsizlik, moliya va soliq, inflyatsiya, monopoliyaga qarshi kurash va raqobatni rivojlantirish, bonkrotlik, birja,

shartnomaviy munosabatlar kabi ko'plab iqtisodiy masalalarini chuqur o'rganishni talab qilmoqda [2].

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasida asosiy vositalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanishiga e'tibor juda katta. Respublika agrosanoat majmuasi tarmoqlari ayniqsa, qishloq xo'jaligi yangi texnikalar, ish qurollari, texnologiyalarsiz rivojlna olmaydi. Ushbu tamoqlarning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'naliishlari ishlab chiqarish chaqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, ximiyalashtirish va avtomatlashtirishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda agrosanoat sohasini rivojlantirish masalalari klasterlar, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Mavhum fikrlash, qiyosiy tahlil, guruhlash, tadqiqotda kuzatish, induksiya va boshqa usullardan keng foydalanildi. Tadqiqotning maqsadi - klasterning faoliyati bo'yicha takliflar ishlab chiqish agrobiznesni o'zgartirish shartlari. Ob'ekt sifatida Qashqadaryo viloyati hisoblanadi qishloq xo'jaligi klasterining a'zosi. Tadqiqotning axborot bazasini xorijiy va mahalliy ilmiy ishlar tashkil etdi olimlar, davlat statistikasi materiallari, normativ-huquqiy va qonunchilik bazasi O'zbekiston Respublikasi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hukumatning amaliy yordami bilan kuzgi boshoqli don ekinlarini ekishga yer tayyorlash va ekish uchun zarur bo'ladigan yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'it, mablag' masalasi va boshqa moddiy resurslar ta'minoti hal etilgan bo'lib, g'alla ekish ishlarini optimal muddatlarda yakunlash choralarini ko'rilmoxda.

Jumladan, g'alla ekish uchun yer tayyorlash va ekish ishlarini o'z muddatida, sifatlari amalga oshirish hamda ekish uchun talab etiladigan mineral o'g'itlarning zaxirasini yaratilishi yuzasidan joylarda Inspeksianing hududiy boshqarmalari va tuman bo'limlari tomonidan doimiy nazorat tadbirlari olib borilmoqda [10,11].

Chorvachilik xo'jaliklarining umumiyligi soni 17,699 ming hektar, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiyligi soni 20236,3 ming hektar, Qishloq xo'jaligi texnikalarining umumiyligi soni 316,694 ming donani tashkil etadi.

Joylarda o'tkazilgan nazorat tadbirlari davomida 8 ming 750 nafar fermer xo'jaliklarining 80,2 ming hektar maydonlarida xato va kamchiliklar aniqlanib shundan, g'alla ekish uchun 1 ming 802 nafar fermer xo'jaliklari 7 ming 345 hektar yer maydonlarini notejis va 1683 nafar fermer xo'jaliklari 6 ming 510 hektar yer maydonlarini kesakli qilib tayyorlaganligi, 547 nafar fermer xo'jaliklarining 2 ming 41 hektar maydonlariga g'alla sifatsiz ekilganligi, 1 ming 720 nafar fermer xo'jaliklari 7 ming 548 hektar yer maydonlarida yerga yer qo'shish ishlarini bajarmasdan dala atroflarini to'liq haydamosdan yer tayyorlab g'alla ekilganligi hamda 325 nafar fermer xo'jaliklari 4 ming 555 hektar yer maydonlariga fosforli o'g'it bermasdan g'alla ekib yuborganligi aniqlangan [12,13].

Ushbu aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida bu kabi salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan mahalliy hokimliklarga, soha rahbarlariga 113ta

taqdimnomalariga fermer xo'jaliklariga 11159 ta ogohlantirish xatlari berilishi ta'minlandi.

Bu borda Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari va tuman bo'limlari tomonidan mavsum davomida monitoring tadbirlari olib borilib, joylarda kuzgi g'alla ekish uchun yer tayyorlash va ekish ishlarining borishi doimiy nazorat qilib boriladi[14].

Joriy yilgi paxta hosilini uyushqoqlik bilan nes-nobud qilmasdan o'z vaqtida va sifatli yig'ib-terib olish bo'yicha Inspeksiya oldiga bir qator vazifalar qo'yilgan.

"O'zgaroinspeksiya" faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlarga ko'ra, inspeksiyaga paxta, boshoqli don va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining qayta ishlangan mahsulotlari, shuningdek, urug'lik materiallari sifati bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, nazorat sinovlarini o'tkazadi hamda mamlakat ichida va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblangan xulosalarni berish vazifasi yuklatilgan [15,16].

Bugungi kunda arbitraj guruhlari tomonidan 34 ta holatdagi nizoli masalalarning 30 tasi fermer xo'jaliklari va 4 tasi paxta to'qimachilik ishlab chiqarish klasterlari foydasiga ijobiy hal etildi hamda arbitraj guruhlari mavsum yakuniga qadar o'zlariga topshirilgan vazifani amalga oshirib boradilar.

"O'zagroinspeksiya" va uning hududiy boshqarmalari hamda ularning tuman bo'limlari tomonidan o'tkazilgan monitoring yakunlariga ko'ra, 2 ming 919 ta subyektlarning 93,3 ming hektar urug'lik g'o'za maydonlarida aprobatsiya ko'rige o'tkazildi.

O'tkazilgan aprobatsiya ko'rige yakuniga ko'ra, 2 ming 667 ta subyektlarning 78,7 ming hektar yoki 84,4 foiz maydonlari urug'lik olish uchun yaroqli deb topildi.

Shuningdek, aprobatsiya ishchi guruhining xulosasiga asosan, 1 ming 30 ta subyektlarning 14,5 ming hektar (15,6 foiz) urug'lik g'o'za maydonlari yaroqsiz deb topildi.

Kelgusida sifatli urug'lik olish uchun yaroqli hisoblangan 78,7 ming hektar maydonlardan 120,3 ming tonna urug'lik paxta xom ashvosini olish rejalashtirilib, shundan 61,7 ming tonna urug'lik chigit olinishi kutilmoqda .

Shu bilan birga, Prezidentning 2023-yil 15-dekabrdagi "Paxtachilikda urug'chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida" gi qarori ijrosi yuzasidan, respublikamizdagi 4 ming 808 ta subyektlarning 96 ming hektar maydonlarida xorijiy g'o'zaning nav va duragylari ekildi.

Ushbu maydonlardan kelgusi yil hosili uchun urug'lik olish maqsadida urug'lik maydonlar tanlab olindi hamda aprobatsiya ko'rige o'tkazilib, 331 ta subyektlarning 7,9 ming hektar xorijiy g'o'za maydonlaridan urug'lik olish belgilab olingan bo'lib, ushbu xorijiy g'o'za maydonlaridan 13,3 ming tonna urug'lik paxta olish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda urug'lik olish uchun yaroqli deb topilgan g'o'za maydonlarida yig'im-terim ishlari davom etmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarining samaradorligini ta'minlash maqsadida, Inspeksiyaning hududiy boshqarma va tuman bo'limlarining mutaxassislari tomonidan tizimli nazorat tadbirlari olib borilmoqda.

"Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog' va tokzorlarni barpo qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident farmoni qabul qilindi.

Quyidagilar tashkil etiladi:

- Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi negizida Agrosanoatni rivojlantirish agentligi;

- Agentlik huzurida Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi hamda Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi.

- 2024 yil 1 oktabrdan sanoatlashgan yangi intensiv bog' va tokzorlarni barpo etish hamda moliyalashtirishning yangi tizimi joriy etiladi.

- 2024 yil 1 oktabrdan yangi bog'larni barpo etishni Jamg'arma kredit resurslari hisobidan tijorat banklari orqali moliyalashtirishning quyidagi tartibi joriy etiladi:

- 1-bosqichda – yerni ekishga tayyorlash uchun imtiyozli kreditning 10 foizigacha miqdorda;

- 2-bosqichda – ko'chat sotib olish va ekish xarajatlariga imtiyozli kreditning 40 foizigacha miqdorda;

- 3-bosqichda – sug'orish tizimlarini o'rnatish xarajatlariga imtiyozli kreditning 30 foizigacha miqdorda;

- 4-bosqichda – bog' hosilga kirgunga qadar 3 yil parvarishlash xarajatlariga imtiyozli kreditning 20 foizi miqdorida ajratiladi.

Xulosa va takliflar.

Agrosanoat majmuasining samardorligi va o'z vazifasini to'liq bajarishi ko'p jihatdan uning uchinichi sohasi rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Agrosanoat majmuasi sohasiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, dastlabki va chuqur qayta ishlovchi tayyor, oxirgi maxsulotlarni iste'molchilarga yetkazish bilan shug'ullanuvchi tarmoq va xizmatlar kiradi. O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotda agrosanoat majmuasi uchinchi sohasining o'rni va ahamiyati beqiyos. Ularning yil davomida bir meyorda ishslash qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar nobud bo'lishining oldini oladi va ularning sifatini yana da yaxshilaydi.

Mehnatga layoqotli kishlarning katta bir qasmini ish joylari bilan ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi nisbatan yaxshi rivojlangan qayta ishslash sanoatiga ega. Ayniqsa, oziq- ovqat va yengil sanoat kuchli rivoj topgan. Shu bilan birgalikda agrosanoat majmuasi sohasida ko'pgina yechimni kutayotgan masalalar mavjud. Ularning eng asosiysi sohaga kiruvchi tarmoqlarda vujudga keltirilgan mavjud quvvatlardan to'liq foydalanishdir. Ma'lumki, ayrim tarmoqlarda mavjud quvvatlardan

foydalish darajasi oshirish talab etmoqda. Bu o'z navbatida, juda katta muammolarni vujudga keltiradi.

Agrosanoat majmuasi sohasini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biri hisoblanadi. Bu borada juda katta ishlar amalga oshirilayapti. Asosiy mahsulotlardan biri-paxtani chuqur qayta ishlashni tashkil etish, ayniqsa, katta iqtisodiy va ijtimoyi ahamiyatga ega.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сон Фармони.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-som Farmoni.
3. E.M. Akhmetshin, K.A. Barmuta, Z.M. Yakovenko, L.I. Zadorozhnaya, D.S. Mironov, E.N. Klochko, Int. J. of App. Business and Economic Res. 15(23), 355-364 (2017)
4. D.V. Zavyalov, Russian Journal of Entrepreneurship, 18(17): 2451-2552 (2017). DOI: <https://doi.org/10.18334/р18.17.38285>.
5. T.P. Maksimova, N.E. Bondarenko, Issues of branch clusters development: from theory to practice. Interactive Science 6: 114-119 (2016)
6. I.S. Abdullaev, P.A. Gurbanov, R.A. Aleshko, Y.Yu. Finogenov, Siberian J. of Life Sci. and Agr. 15(3), 357-386 (2023). doi: 10.12731/2658-6649-2023-15-3-357-386
7. Абдиев А. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти фанидан маъruzalar matni. Қарши-2007
8. Жўраев Ф.Д. & Аралов F.M. (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш заруриятининг асосий жиҳатлари. // Educational research in universal sciences, 2(2), 36-43.
9. Жўраев Ф.Д. (2021). Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни қисқа муддатли прогнозлаштириш. // Инновацион технологиялар, (2 (42)), 92-95.
- 10.Rakhimov A.N. & Jo'raev F.D. (2022). A Systematic Approach To The Methodology Of Agricultural Development And The Strategy Of Econometric Modeling. resmilitaris, 12(4), 2164-2174.
- 11.Juraev F.D.S. (2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agronomic System In A Market Economy. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 49-54.
- 12.Mukhitdinov K.S. & Juraev F.D. Methods of Macroeconomic Modeling. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), e-ISSN, 2456-6470.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-11 (30- November)

- 13.Raximov, A. N. (2023). Dehqon xo'jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga tasir etuvchi omillar. Экономика и социум, (3-2 (106)), 255-262.
14. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiyl ovqatlanish korxonalari faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. Iqtisodiyot va ta'lif, 24(6), 245-250.
- 15.Khudoyorov, L. N. (2020). Forecasting the development of small business and private entrepreneurship on the basis of multifactorial empirical models. Science and World, (11 (87)), 41.
- 16.Жўраев Ф.Д. & Аралов Ф.М. (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш заруриятининг асосий жиҳатлари. Educational research in universal sciences, 2(2), 36-43
- 17.Maxmatqulov, G. O. X. (2023). Savdo xizmatlari tarmog 'ini rivojlantirish masalalariga tizimli yondoshuv. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 175-182..
- 18.Rakhimov A.N., Makhmatkulov G.K. & Rakhimov A.M. (2021). Construction of econometric models of development of services for the population in the region and forecasting them. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 21-48.